



HUMAN CHARACTER IN ALLEGORICAL IMAGES OF AESOP'S FABLES

Usarova Laylo¹

Odinayeva Farangiz²

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

KEYWORDS

fables, human, reader,
ideological, attention,
meaning

ABSTRACT

In this article, brief information about Aesop's fables and human character and animals in it was given.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10395759**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

² Student of Uzbek language and literature, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

EZOP MASALLARIDAGI ALLEGORIK OBRAZLARDA INSON XARAKTERI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

masal, inson, g'oyav,
o'quvchi, e'tibor, ma'n

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Ezopning masallari va undagi inson xarakteri va hayvonlar haqida qisqacha ma'lumot berilib o'tildi.

Masalnavis Ezop ijodiga mansub eng sara ibratli, qiziqarli, masallari har doim e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan. Ezopni barcha masallari qisqa va mazmundor. Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik yoki umidsizlik ruhida yozilgan masallarida asosiy personajlar hayvonlar hisoblanadi. Har bir masali shartli voqea asosida va ixcham bayon qilinadi. Ezop asosiy g'oyalarni ochib berish uchun Yevropa masalchiligi syujeti tashkil etadi.[2.183]

Masallarda hozirgi kundagi yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qozonishi, yolg'onchilik va ta'magarlik, albatta oxirida jazoga tortilishi, maqtanchoqlik hech qanday odamga naf keltirmasligi hayvonlar orqali ham bilib olishimiz mumkin.[1.46] Tushunishimiz yanada oson bo'lishi uchun alohida rasmlar orqali ham ochib bergan. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, Ikki do'st va ayiq masalida Ikki do'st o'rmonda aylanib yurganlarida to'satdan oldilaridan ayiq chiqib qoladi. Ulardan birinchisi daraxt ustiga sakrab chiqib oladi, ikkinchisi esa o'zini o'lganga soladi. Ayiq kelib turtib ko'radi va o'lgan deb o'ylab ketadi. Ayiq ketgach, haligi do'sti daraxtdan tushib kelib:

- Do'stim ayiq qulog'inga shivirlab nima dedi, deb so'raydi.
- U menga qiyinchilik payti seni tashlab ketadigan do'st bilan sayohatga chiqma deb aytdi deydi.[3.89]

Bu masal qisqa bo'lgani bilan chuqur g'oyaviy ahamiyatiga ega. O'quvchiga oson va tushunib anglashiga mulohaza qilishiga sabab bo'ladigan masal hisoblanadi. Agar Ezop masallarini hozirgi kun bilan ham bog'lasak, tarbiyaviy ahamiyatga ega. "Ikki do'st va ayiq" masalidan qissadan hissa shuki, har qanday do'st hamisha qiyinchilikda sinaladi.[1.68] Haqiqiy do'st doim yaxshi yomon kunda insonni yonida turib yordam beradi. Aynan shu masal hozirgi kunga to'g'ri keladi. Birgina masali emas boshqa masallari ham yoshlarga ibrat bo'ladigan va xulosa chiqaradigan ta'limiy ruhdagi masal hisoblanadi.[2.80]

"Qariya va ajal" masalida esa bir o'rmonda o'tin kesib, uni uyi tomon sudray boshlaydi. Yo'l juda olis edi. Qariya holdan toyib, o'tinni tashladi-da, yaratgandan o'ziga o'lim tilab yolvordi. Shunda ajal hozir bo'ladi va qariyadan nima uchun yo'qlaganini so'radi. Qariya ajalga shunday javob berdi. "O'tinimni ko'tarishib yuborishing uchun seni chorlagandim". Qissadan hissa shuki, inson hayotda qanchalik qiynalmasin g'am tashvish tortmasin baribir olloh bergan umr inson uchun judayam qadrli. Inson umri tugab, to'shakka yotib qolsa, ham

dunyodan o'tishni hohlamaydi. Aslida, hamma inson bu dunyodan o'tadi, shuning uchun olloh bergan har bir ne'matni qadriga yetishimiz kerak. [4. 54]

Ezop masalda ko'proq qisqalik , soddalik va oddiy axloqiy jihatlarni beradi. Ulardagi masxara ob'ekti - odamlar shu kungacha qutula olmagan illatlardir. Bu esa Ezop asarlariga hayotdagi o'zgaras voqealarni ochib beradi. Masalni o'qigan kishi, qahramon aynan qayerda xat6 qilganini mustaqil ravishda taxmin qilishi mumkin. Bu masallardan o'quvchilar o'zlarining xatti -harakatlari, atrofdagi olamga turfa xil qarashlarini oshirishga, hayot va o'zgaras qonuniyatlarning davom etishi, hayot haqiqatlarini yolg'ondan ajratishga yordam beradi.[1.67] Ezop masallarini eng kichik bolalardan boshlab, barcha yoshdagi odamlar uchun namuna sifatida xizmat qiladi. Ta'kidlanishicha, olov sanami Prometey loydan odam yasayotganida suv o'rniga ko'z yoshlardan foydalangan. Shu bois insonga kuch bilan ta'sir o'tkazishga urinish befoyda ekan. Insonni bo'ysundirish uchun imkon boricha uni yaxshi so'zlar bilan tinchlantirib, ko'nglini yumshatmoq va ishontirmoq darkor. Ana shunda har qanday kishida rahm - shafqat va mehribonlik hissi uyg'onadi, deb aytadi. Ezopni barcha masallarini o'quvchi zerikmasdan, maroq bilan o'qiydi, to'g'ri masallari qisqa lekin aniq va ibratli.[8;70] Ezop ertaklarining juda katta to'plami saqlanib qolgan, ammo u o'rta asrlarda tuzilgan, shuning uchun Ezopning haqiqiy merosini aniqlash qiyin. Ezop ertaklari uzoq tarixga ega bo'lgan xalq ertaklariga asoslangan. Uning ertaklari ko'pincha xalq hayotining eng qalin voqealaridan olingan jonli kundalik sahnalaridir, ular ilk badiiy adabiyotning yorqin namunasi. Ezop ertaklari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Ezop ertaklariga bo'lgan qiziqish uning shaxsiyatiga o'tdi, u haqida ishonchli ma'lumot yo'qligi uchun ular afsonaga murojaat qilishdi.[3.98] Firigiyalik so'zlovchi, bu dunyoning qudratlisini allegorik ravishda qoralab, tabiiyki, Gomerning Terzitlari kabi janjal va g'azabli odam bo'lib ko'rinadi. "Tulkilar va quyonlar" masalida ham kuzatilgan. Quyonlar burgutlar bilan urush boshlashibdi. Urush chog'ida ular tulkilardan yordam so'rashibdi. Shunda tulkilar ularga bunday deb javob berishibdi -

Agar biz sizlarning kimligingizni, kimlar bilan urushayotganingizni bilmagani mizda edi, sizlarga bajonidil yordam bergan bo'lardik.[5.45]

Qissadan hissa shuki, biror narsaga rozilik bildirishdan avval uning oqibatini o'yla. Bu masaldan xulosa shuki, inson qiladigan ishni yoki qaror qabul qilishini yaxshilab o'ylab olishi kerak. Shoshqaloqlik hech qachon insonga foyda olib kelmagan. Tezda oxirini o'ylamay rozilik berish ham yoki biron ishni tushunmay qilish yaxshilik bilan tugamaydi. Tulki ham rozilik bersa, bo'lardi ammo, oxiri yaxshi bo'masligini bilib rad javobini berdi. Insonlardagi shunday holat hayvonlar orqali tasvirlangan. Masal va hikmatning g'oyasini "Birlashgan o'zar - birlashmagan to'zar " o'zbek xalq maqoli bilan ifodalasak, ham o'rinlidir.

Ezop bir folbin haqida hikoya qilar ekan unga uyi yonayotganini haqida aytib

yolg'on gapirishganda folbinning uyiga qarab yugurganini aytadi. Aynan shunga o'xshash hikoya konfutsiya ham uchraydi. U bir boqiy umr ko'rishni o'rgatuvchi inson haqida gapirar ekan uni qidirib borishganda vafot etganligini ko'rishganini hikoya qiladi. Ikki masalni ham "Bo'zchi belboqqa yolchimas" o'zbek maqoli birlashtirib turgandek go'yo.

Xulosa qilib aytganda, Ezop ham, konfutsiya ham o'zbek uslubini yarata olgan.[2.31] Ezop o'z fikrlarini yetkazishda ramziylikka suyangan bo'lsa, konfutsiy o'z maqsadini to'g'ridan-to'g'ri yoki shogirdlarining savollariga javob beraturib bildirgan. Ular yashagan davr bizdan qanchalik uzoq bo'lmasin, asarlari va g'oyasi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ya'ni yashashda davom etmoqda.

Insoniyat shu hayotda yashar ekan xotirjam, baxtli hayot kechirishi mumkin. Biroq, Ikki ijodkorning dono fikrlariga, asarlariga qayta-qayta murojaat qilamiz. Hayvonlar orqali odamlarning xulq - atvori, tarbiyasi, tarbiyaviy jihatlari keng miqyosda ochib berilgan. [4.56] Ezopni har bir masalini e' tibor berib o'qiydigan

bo'sak, juda katta ma'no mujassamlashtirilgan. Bu masallarni yozilganiga ancha vaqt o'tgan bo'lsa, ham ma'no va boshqa jihatdan hozirda ham o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Konfutsiy (2019). - Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi.
2. Ezop masallari (2021). - Toshkent: yangi asr avlodi.
3. Ezop masallari- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010
4. N. Hotamov.B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha- o'zbekcha izohli luğati.T: "O'qituvchi ", 1983.
5. O'zbek xalq ertaklari. 2 jild- T: O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1963.